



BUKHORO
DAVLAT
UNIVERSITETI

BUKHORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

8/2023

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



8/2023



@buxdu_uz




@buxdu1




@buxdu1



www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466



ISSN 2181-6875

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2023, № 8, sentabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liq Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

ANIQ VA TABIIY FANLAR *** EXACT AND NATURAL SCIENCES ***
ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ

Sabirova R.A.	Xos to‘lqinning qovushoq-elastik silindrik qobiqda tarqalish xususiyatlari	4
Khalkhadzhaev B.B., Yusupov Sh.B., Mambetsapayev K.A.	On a weak generalized solution of a mixed-type fourth order equation of the second kind	9
Сафаров Ж.Ш.	Прямая и обратная задача для уравнения вязкоупругости с дополнительной информацией нестандартного вида	15
Жураев Ф.М.	О краевой задаче с условиями Геллерстедта на параллельных характеристиках для вырождающегося нагруженного уравнения параболо-гиперболического типа	23
Jo‘orakulov S.Z.	Properties of polymers	32
Хайруллаев Ч.К.	Жамият ҳаётида соғлом турмуш тарзининг аҳамияти ва уни ташкил қилишнинг асосий омиллари	38

TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Yuldasheva D.N.	Sukut – ichki va tashqi nutqning harakat birligi	45
Bobokalonov O.O.	Character of shifonemas in linguistics	52
Bozorova G.Z.	Tibbiy atamalarda pleonastik birliklarning voqelanishi	59
Hamroyeva M.R.	Tohir Malik badiiy asarlarida qo‘llanilgan antroponimlarning yasalish strukturasi	63
Kurbanova I.Sh.	Exploring the derivation of railway terminology: a linguistic analysis	68
Rabieva M.G‘.	Translation as a type of intercultural communication	73
Radjabov N. N.	Ingliz va o‘zbek tillarida undoshlarning fonologik xususiyatlarida izomorfizm va allomorfizm	77
Rakhmatova M.M.	The role of figurative devices in expressing implicative meaning	88
Seytnazarova I.E.	Tilewbergan Jumamuratov asarlarida frazeologizmlarning uslubiy qo‘llanilishi	92
Велиева С.Р.	Русские идеологические топонимы в иноязычной среде (на материале регионов Республики Узбекистан)	97
Гаппарова М.Т.	Инглиз ва ўзбек тилларида луғат белгилари	104
Каримова Г.Х.	Эргонимы как объект лингвокультурологического исследования	109
Нарзуллаева Д.Б.	Теолингвистика ва теолингвистик бирликлар тадқиқи	114
Ширинова М.Ш.	Мустақиллик даври ўзбек кинофильмлари тилида эғалик ва келишик воситаларининг қўлланиши	121
Ёкубова Ш.Ю., Юсупова А. Ш.	Глагол и простая структура предложения в узбекском языке	125

Shunday bo'lishiga qaramasdan, tibbiyot xodimlari nutqida bemorlarga yoki tibbiyot terminlaridan xabardor bo'lmagan aholi qatlamiga aniqroq, tushunarliroq ma'lumot berish maqsadida ko'p hollarda kasallik nomi bilan birga, shu dard tegishli bo'lgan inson organizmi birgalikda qo'llanib, pleonastik birikmalarni hosil qilib kelmoqda. Jumladan: *ko'z glaukomas*, *ko'z kataraktasi*, *o'pka atelegtazi*, *o'pka pnevmoniyasi*, *yurak taxikardiyasi*, *yurak bradikardiyasi* kabilar.

Oftalmologiya sohasida qo'llanadigan qator birikmalar pleonastik shaklda ifoda qilinadi. Masalan, *ko'z kataraktasi* hamda *ko'z glaukomas* birikmalarida mazmuniy takror mavjud. Ushbu birliklarda semantik qavatlanish mavjudligini aniqlash uchun tibbiy atamalarning izohiga murojaat qilamiz:

Katarakta (*yun. katarhaktos* – sharshara) – ko'z gavharining xiralanishi. Bunda ko'zga tushayotgan yorug'lik nurlarining yo'li qisman to'silib qolib, ko'z ba'zan ko'rmay qoladi. Ko'z gavharining qaysi qismi xiralashganiga qarab ko'zning quyidagi turlari farq qilinadi: old va orqa polyar katarakta, xaltali katarakta (gavharni o'rab turgan kapsulada bo'ladi), yadroli (gavharning markazida bo'ladi), urchuqsimon, qavatli yoki zonulyar, to'liq plyonkasimon, ko'p shaklli, po'stloq kataraktasi (gavharning periferik qavatiga tushadi). Ko'z gavharida xiralanishning boshlanishi birlamchi katarakta deyilsa, gavharning yadrosi yoki katarakta massalari olingandan so'ng paydo bo'lgan xiralanish ikkilamchi katarakta deyiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan 2021-yil 27-avgustda tasdiqlangan Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazida imtiyozli toifaga kiruvchi bemorlarga davlat budjeti tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar qiymati qayd etilgan jadvalda “*Yagona ko'ruvchi ko'z kataraktasi – fakomulsifikatsiyasi, katarakta tonnel ekstraksiyasi, intrakapsulyar ekstraksiyasi*” jummalari mavjud bo'lib, yuqorida katarakta so'ziga berilgan izoh hamda tibbiyot xodimlarining xulosalariga tayanib, ushbu kasallik faqat ko'z sohasi uchun tegishli hisoblanadi. Shuningdek, katarakta atamasining izohida ham bevosita ko'z kasalligi deya qayd etilgan. Shunday ekan, ko'z kataraktasi birikmasi semantik takror mavjud pleonastik birlik sanaladi.

Shunga o'xshash holat tibbiyot oliygohi talabalari nutqida ham uchral ekan: “*Ko'z glaukomasiga oid ma'lumotlarni internetdan topa olmadik, kerakli adabiyotlar ro'yxatini bera olasizmi?*” (Fazliddin Berdiyev, BuxDTI talabasi)

Glaukoma (*yun. glaucos* – och ko'k, ko'kimtir-yashil), ko'k suv, nazla – ko'z kasalligi; asosiy belgilari: ko'z ichi bosimining oshishi, ko'ruv maydonining torayishi va ko'ruv nervi diski atrofiyasi.

Mazkur izohdan glaukoma aynan ko'z kasalligi ekanligi hamda uni yana qayta *ko'z* so'zi bilan birgalikda qo'llash nutqiy ortiqchalikni vujudga keltirayotgani anglashiladi. Bu misolda talabalar tomonidan kasallik haqida to'liq va atroflicha ma'lumotga ega emaslik yoxud birliklarni qo'llashda lingvistik xususiyatlarga e'tiborsizlik natijasida pleonastik birikma shakli hosil bo'lgan.

Pulmonologiyada *o'pka atelegtazi*, *o'pka pnevmoniyasi* birikmalari mavjud bo'lib, tilshunoslik nuqtayi nazaridan ushbu birliklar pleonazm hodisasiga misol bo'ladi.

Atelektaz (*yun. ateles* – yetilmagan, noto'liq va *ektasis* – cho'zilish) – o'pka pufakchalari (alveolalari), segmentlar va bronxlarning havosizlanishi yoki deyarli havo qolmasligi natijasida burishishi (puchqayishi). Atelektaz bronxlar teshigining har xil narsalar (nekroz natijasida ko'chib tushgan epiteliylar va h. k.) bilan tiqilib qolishi yoki bronxlarning tashqi tomondan siqilishi (plevrada transsudat yoki eksudat yig'ilganda, o'smalarda) oqibatida ro'y beradi. Bulardan tashqari, tug'ma atelektaz ham bo'ladi – nafas olmaslik natijasida chaqaloq o'pkasining yozilmay qolgan qismi.

Ushbu izohda atelektaz faqatgina o'pka sohasi uchun tegishliligi, inson organizmining boshqa a'zolarida kuzatilmaydigan kasallik ekanligi qayd etilgan.

Pnevmoniya (*yun. pneumon* – o'pka) – o'pkaning yallig'lanishi; zotiljam.

“*Agar yurak-qon tomir kasalliklariga chalingan bemorlar koronavirus infeksiyasi bilan og'rib, o'pka pnevmoniyasi kuzatilganda hamda qon quyuqlashib ketganda yuqorida keltirilgan kardiologik kasallik belgilari zo'rayib ketadi*” (Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bo'lim rahbari, tibbiyot fanlari nomzodi Hamidulla Toshpo'latov).

Mazkur birikma ham *o'pka atelegtazi* birligi singari pleonazm hodisasiga misol bo'la oladi. Lingvistik jihatdan atama bilan birgalikda o'pka so'zini qo'llash semantik ortiqchalik sanalsa-da, lingvopragmatik jihatdan tahlil qilinganda, bu kabi tibbiy terminlar bilan hosil bo'lgan pleonastik birikmalarga nutqiy ortiqchalik sifatida emas, balki uslubiy vazifa bajaruvchi vosita sifatida qarash kerak. Chunki tibbiyot xodimlari uchun oddiy, ma'nosi aniq bo'lgan atamalar har doim ham bemorlar yoki boshqa soha vakillari uchun tushunarli bo'lavermaydi. Shu sabab ham pleonazm bu o'rinda stilistik ahamiyat kasb etadi.

Kardiologiya yo'nalishida *yurak aritmiyasi*, *yurak taxikardiyasi*, *yurak bradikardiyasi* kabi pleonastik birliklar tibbiy matnlarda, shifokorlar, tibbiyot oliygozlari talabalari nutqida uchral turadi. Mazkur

birikmalardagi ortiqchalik tibbiy atamaning lugʻaviy maʼnosi oʻrganganda yoki tib ilmida kasallik sifatidagi izohida yaqqol koʻzga tashlanadi:

Aritmiya – (yun. *a* – inkor qoʻshimchasi va *ryhtmos* – ritm) – yurak qisqarishlari maromi (normal ritmi)ning buzilishi; chuqur nafas olganda yurak qisqarishining tezlashishi, nafas chiqarganda kamayishi (nafasga aloqador), koʻproq bolalar va oʻsmirlarda kuzatiladi; yurakning navbatdan tashqari oldinroq qisqarib qolishi (ekstra-stolik), maromli faoliyatining izdan chiqishi (hilpillovchi) va boshqa aritmiyaga yurak muskullarining kasalliklari, nevrozlar, spirtli ichimliklar va nikotindan zaharlanish sabab boʻladi.

Ushbu izohdan aritmiya faqatgina yurak faoliyati bilan bogʻliqligini tushunish qiyin emas.

Taxikardiya (yun. *tachys* – tez va *kardia* – yurak) – yurak qisqarishlarining tezlashuvi, yurakning tez (1 minutda 100 va undan koʻp) urishi. Yurak qisqarishi ritmikligi va sonining buzilishi, uning asosiy xususiyatlaridan biri – yurak avtomatizmining oʻzgarishi natijasida yuzaga keladi.

Bradikardiya (yun. *bradys* – sekin va *kardia* – yurak) – yurak qisqarishlarining sekinlashishi, yurakning sekin (1 minutda 60 dan kam) urishi. Sogʻlom kishilarda (masalan, sportsmenlarda) ham kuzatiladi, koʻproq yurakning ayrim kasalliklari (yurak blokadasi, sinus tugun kasalliklari va b.) belgisi boʻlishi mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Garchi yuqorida izohi keltirilgan *aritmiya*, *taxikardiya*, *bradikardiya* kasalligi mutaxassislar uchun yurakka tegishli ekanligi ayon boʻlsa-da, bemorlarga yoki ommaga shu kasallik haqida aniqroq maʼlumotni yetkazish, tibbiy atama sifatidagi ushbu soʻzlar yurak sohasiga tegishli terminlar ekanligidan xabardor qilish maqsadida uslubiy vazifa bajarib kelmoqda.

Tahlillar natijasi tibbiy nutqda pleonastik birliklarning qoʻllanish shakllari turlichaligini koʻrsatdi. Xususan, boshqa sohalarga qaraganda, tibbiyotda semantik ortiqchalik qisqartma (abbreviatura)lar bilan birgalikda, uning oʻzida izohlangan birlikning mazmunini takror tarzda qoʻllash holati koʻp uchrashi qayd etilgan.

ADABIYOTLAR:

1. <https://kun.uz/news/2019/09/05/sobiq-ittifoq-hududidagi-aksar-respublikalarda-filologiya-yangi-ozanlarga-tushib-oldi-bizdachi-professor-bilan-suhbat>
2. Абузалова М.К. Лингвистика ва тиббиёт ҳамкорлиги ижтимоий зарурат сифатида// *Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari*. –Buxoro, 2021. –B.17-22.
3. Рахимов Б. С. Ультратовуш текшириш аппаратидан олинган маълумотларни рақамли қайта ишлаш / Б. С. Рахимов. — Текст : непосредственный // *Техника. Технологии. Инженерия*. — 2017. — № 2.1 (4.1). — С. 17-18. — URL: <https://moluch.ru/th/8/archive/57/2321/> (дата обращения: 25.11.2022).
4. Shavketovna, Y. A., & Zayniddinovna, B. G. (2023). *Lexical-Semantic Characteristics of Medical Abbreviations*. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(6), 98–101. Retrieved from <http://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/289>
5. Bozorova, G. (2023). *Лингвопрагматическая характеристика плеонастических единиц используемых в политической речи*. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 34(34). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9752
6. Zayniddinovna B. G. *Ortiqchalik tamoyilining jahon tilshunosligida organilishi*. – 2021.
7. Bozorova, G. (2021, February). *Tautology and pleonasm: synchronic and diachronic views*. In *Конференция*.
8. Yarashovna, S. G., Istamovna, A. N., & Zayniddinovna, B. G. (2023). *Methods of Using Metaphorical, Pleonastic and Paremic Units in Uzbek Linguistics*. *resmilitaris*, 13(2), 5560-5572.
9. Samandarova, G. Y. (2021). *Fundamentals of folk proverbs formed on the basis of the lexical-spiritual group of insects*. *current research journal of philological sciences*, 2(05), 39-42.
10. Bozorov Z.A *International scientific and practical conference “Modern psychology and pedagogy: problems and solutions” “Imperial College London” 2021-2022*. 165-169 б.
11. Бозоров З.А. *The system of formation of civic culture among students in higher educational institutions*. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 01 (81), 455-458. *Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS-01-81-81 Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS Scopus ASCC: 3304*. (2020).
12. Kadyrovna A. M., Zayniddinovna B. G. *Description of Events Which is Near to Pleonasm //Spanish Journal of Innovation and Integrity*. – 2022. – T. 5. – С. 281-285.

**TOHIR MALIK BADIY ASARLARIDA QO'LLANILGAN ANTROPONIMLARNING
YASALISH STRUKTURASI**

*Hamroyeva Maftuna Rasulovna,
f.f.f.d.(PhD), Buxoro davlat universiteti
O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida o'qituvchisi
maftuna130193@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozuvchi uslubidagi antroponimik birliklardan biri bo'lmish kishi nomlarining yasaliş strukturasi, ijodkor uslubida ulardan foydalanishning ahamiyati, tilda tutgan o'rni haqida mulohazalar bildirilgan.

Har bir til o'zining ichki qonuniyatlari asosida rivojlanishi, u ma'lum darajada boshqa tillar ta'sirini ham boshdan kechirishi, har bir xalq boshqa xalqlardan ajralgan holda yashay olmasligi ma'lum. Davlatlar o'rtasida hamma vaqt iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar bo'ladi, bu aloqalar tilda ham o'z aksini topadi. Binobarin, tilda, xususan, uning onomastik birliklarida hamma tarixiy davrlarga oid muhim ahamiyatga ega bo'lgan lingvistik faktlarni topish mumkin. Har bir tildagi so'z yasaliş vositalari onomastik birliklarni yasashda ham ishtirok etadi. Tohir Malik asarlarida qo'llangan ismlar tuzilişiga ko'ra sodda va qo'shma ismlarga bo'linadi. Sodda ismlar o'z ichida sodda tub va sodda yasama bo'ladi. Tarkibida lug'aviy shakllari mavjud ismlar esa tub sodda, ikkita asosga ega ismlar esa qo'shma ismlar sifatida xarakterlanadi.

Shuningdek, adib ijodidagi bu kabi antroponimik shakllarning tuzilişiga doir fikr-mulohazalar misollar vositasida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: antroponimlar, urf-odat, din, badiylik, badiy asar, kishi nomlari, uslubiyat, qatlam, lug'aviy, arab, fors-tojik, badiy uslub, adabiy til, badiy til, borliq.

**ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СТРУКТУРА АНТРОПОНИМА, ИСПОЛЬЗУЕМОГО В
ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ТАХИРА МАЛИКА**

Аннотация. В данной статье рассматривается структура личных имен, которые являются одной из антропонимических единиц в стиле писателя, значение их употребления в стиле художника, место, которое они занимают в языке.

Известно, что каждый язык развивается по своим внутренним законам, он испытывает в известной степени влияние других языков и каждый народ не может жить изолированно от других народов. Между странами всегда существуют экономические, политические и культурные связи, которые отражаются в языке. Поэтому в языке, в частности, в его ономастических единицах, можно найти важные лингвистические факты, относящиеся ко всем историческим периодам. В образовании ономастических единиц участвуют и средства словообразования в каждом языке. Имена, используемые в произведениях Тахира Малика, по своей структуре делятся на простые и сложные имена. Простые существительные имеют простой корень и простое происхождение. Имена с лексическими формами характеризуются как простые, а имена с двумя основами – как сложные существительные.

Также на примерах раскрываются мнения о структуре таких антропонимических форм в творчестве писателя.

Ключевые слова: антропонимы, традиция, религия, артистизм, художественное произведение, личные имена, методология, пласт, словарь, арабский, персидско-таджикский, художественный стиль, литературный язык, художественный язык, бытование.

**THE FORMATION STRUCTURE OF ANTHROPONYM USED IN THE ARTISTIC WORKS
OF TAHIR MALIK**

Abstract. This article discusses the structure of personal names, which are one of the anthroponymic units in the writer's style, the importance of their use in the artist's style, and their role in the language.

It is known that every language develops on the basis of its own internal laws, it experiences the influence of other languages to a certain extent, and every nation cannot live in isolation from other nations. There are always economic, political and cultural relations between countries, which are reflected in

language. Therefore, in the language, in particular, in its onomastic units, important linguistic facts related to all historical periods can be found. The means of word formation in each language are also involved in the formation of onomastic units. Names used in Tahir Malik's works are divided into simple and compound names according to their structure. Simple nouns have a simple root and a simple derivation. Names with lexical forms are characterized as simple, and names with two bases are characterized as compound nouns.

Also, opinions on the structure of such anthroponymic forms in the work of the writer are revealed through examples.

Key words: anthroponyms, tradition, religion, artistry, artistic work, personal names, methodology, layer, dictionary, Arabic, Persian-Tajik, artistic style, literary language, artistic language, existence.

Kirish. Antroponim – o‘zbek tili lug‘at boyligining bir qismi bo‘lib, u milliy madaniyat, urf-odat, an‘analarning ifodachisi. Antroponim lingvistik hodisa sifatida tilning tuzilishi, yasash qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Antroponimlarning tuzilish qoliplari ham antroponim uchun asos bo‘lgan so‘zning xususiyatiga, ham antroponimlarning o‘ziga xos xususiyatlariga asoslanadi. Hozirgi davrda o‘zbek tilidagi ismlarni lisoniy tuzilishiga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. Sodda tuzilmali antroponimlar.
2. Yasama tuzilmali antroponimlar.
3. Qo‘shma tuzilmali antroponimlar.[6;217]

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Hozirgi o‘zbek tilidagi atoqli otlar ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘rganilmoqda. Nomlar nazariy, tavsifiy, qiyosiy, tarixiy va sinxron yo‘nalishda tadqiq qilinmoqda. O‘zbek nomshunosligi ilmiy soha sifatida o‘ziga xos ba‘zi tekshirish usullari, tamoyillariga egaligi E.Begmatov, N.Uluqov “O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati” kitobida berib o‘tilgan. Y.Menajiyev, X.Azamatov, D.Abdurahmonov, E.Begmatovlarning “Ismingizning ma‘nosi nima?” kitobida tilimizdagi nomlarning ismlik va turdosh otlik ma‘nolarini tushuntirib berganlar. Asarning so‘zboshi qismida kishi nomlarining kelib chiqishi, nom qo‘yish odatlari va usullari haqida aytib o‘tilgan. Adib Tohir Malikning badiiy asarlarida arabiy ismlarning nisbatan ko‘p qo‘llanilganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Asardagi antroponimlar tahlilida tavsifiy tahlil metodidan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Quyida Tohir Malik asarlarida qo‘llangan antroponimlarni tuzilish jihatdan tahlilga tortamiz.

Sodda tuzilmali antroponimlar. Bunday kishi nomlari bir so‘zdan tashkil topadi. Masalan, *Ammo sovuq qarashni ilita olmadi, Asrorning salomiga ham quruq alik oldi. Valining hayoti avvaliga Aliga o‘xshardi. Subhi kozibda hovliga chiqqan Risolat kampirning eti bahor izg‘irinida junjikkadi. Jur‘at Xolidaning bu savoliga javob berishni istamay, yuzini o‘girdi.*

Yuqoridagi Asror, Vali, Ali, Risolat, Jur‘at, Xolida kabi ismlar sodda tuzilmali ismlarga kiradi.

Olim E.Begmatov o‘zbek tilida ismlarga sodda deb qarash nisbiy ekanligini ta‘kidlaydi. Bunga ism bir qator antropoforantlarni qabul qilib, boshqa shaklga o‘tib turishini sabab qilib ko‘rsatadi: *Karim – Karimjon, Bo‘ta – Bo‘taboy, Mengli – Menglixon, Safar – Safarboy* kabi.[6;176] Bu o‘rinda olim boshqa shakl deb aynan qaysi shaklni nazarda tutganligi mavhum. Agar kompozitsion shakl nazarda tutilgan bo‘lsa, nomlar -jon, -boy, -xon ko‘rsatkichlarini olib shaklan o‘zgarsa-da, tuzilishiga ta‘sir etmaydi. Ammo -jon, -xon, -oy, -bek, -boy qo‘shimchalari:

a) ba‘zan so‘zlar tarkibida qotib qolishi mumkin, bunday holda ular erkalash shakli sanalmaydi, kishi ismlarining tarkibiy qismi bo‘ladi va bularga biz shakl yasovchi deb qaramaymiz. M: *Mamajon, Oybek, Durbek, Oyxon, Tursunoy, Nurbek, Otabek, Ulug‘bek, Onaxon, Norboy, Nortoy, Norjon, Mirjon.*

b) tilimizda bu qo‘shimchalarga shaklan teng keladigan mustaqil so‘zlar ham mavjud: *Osmonda oy kezmoqda. Xon o‘z farmonini bekor qildi. Boy boyga boqadi, suv – soyga. Echkiga jon qayg‘u, qassobga – moy.*

Bizningcha, sodda ismlar tarkibida kelganda bu indikatorlarda so‘zlik xususiyatidan ko‘ra qo‘shimchalik vazifasi ustuvorlik kasb etadi.

Yasama tuzilmali antroponimlarda leksikaning ism vazifasiga o‘tishi bir necha usullarda amalga oshadi:

1. Fonetik-orfoepik usul.
2. Leksik-semantik usul.
3. Affiksatsiya usuli.
4. Sintaktik (kompozitsiya) usul.[6;176]

Fonetik-orfoepik usul orqali yasalgan ismlar. Ushbu usulda ismlarning o‘zbek tilida shaklan ism egasini erkalash-kichraytirish tufayli qisqargan shaklga kelib qolishi ko‘zda tutilgan.[6;176] Aslida bu hodisa

nutqiy iqtisod qonuniyati bilan bog'liq bo'lib, u o'zbek tilining turli shevalarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilining qarmoq shevasida ismning oxirigi bo'g'inini tushirib, -sh (-ish) shaklini qo'shish orqali qisqartirish kuchli: – *E, zo'rsan, To'xtash, kallang zo'r! Xolish! Bunaqa gaplarni gapirma!* Bu o'rinda To'xtasin To'xtash shaklida qisqargan.

Ismlarning qisqarishidan tamoman yangi ism hosil qilib bo'lmaydi, balki to'liq nomning shakliy varianti hosil bo'ladi. Demak, yuqorida keltirilgan ismlarning qisqargan shakllari yangi ism emas, balki ismning ma'lum maqsadda (erkalash, piching, kinoya, nutqiy iqtisod) qisqartirilgan nutqiy shaklidir. Shuning uchun fonetik-orfoepik usul orqali ism yasalmaydi, balki bu yo'l bilan nomning qisqartirilgan shakli hosil bo'ladi. Ismni qisqartirish, uning uslubiy xususiyati borasida esa ikkinchi bobda maxsus to'xtalgani, tahlil etilgani va umumiy xulosalar berilgani uchun bu o'rinda takror to'xtalmadik.

Ismlarning leksik-semantik usulda yasalishi boshqa so'z turkumlaridan atoqli otga so'z ko'chishi bilan bog'liq jarayon. Bu usulda leksema ismga ko'char ekan, onomastik sathda u hech qanday o'zgarishga uchramaydi, to'g'ridan-to'g'ri ism sifatida qo'llanadi. Mazkur usulda quyidagi turkumlardan ism hosil qilish mumkin:

1) turdosh otdan: masalan, jur'at, san'at, polvon, zohid kabi turdosh otlar kishilarni nomlash uchun qo'llanadi: *O'rinbosar Zohidning ro'parasiga o'tirib, sumkani tizzasiga qo'ydi-da, "qamaysizmi yo rahm qilasizmi?" deganday mo'ltillab qaradi. Davron orqasiga, ovoz kelgan tomonga qaradi. Bir qo'lida katta chamadon tutgan, katta tugunni qo'ltiqlab olgan, kiyimlari ancha uringan, soch-soqoli o'sgan o'ttiz besh yoshlardagi kishini avvaliga tanimadi. – Daydilik deysanmi? – Tal'at bosh chayqadi. – Yo'-o'q, kardinal, bunisi daydilik emas. To'lqin yangi yozmoqchi bo'layotgan asarini gapirib berdi.*

2) sifatdan: go'zal, aziz, asil, nafisa kabi sifatning turli ma'no turini ifodalaydigan leksemalar kishi ismlariga ko'chishi mumkin: *Sharif qizlarni boshlab kelib, oqshomga qadar kuyovini kutdi. Shunday qilmasa, u yo Nafisaning turarjoyini yashirardi, yo olib borib ko'rsatishni paysalga solardi. Keyin Asilovga najot ko'zlari bilan boqdi.*

3) olmoshdan: Kimsan.

4) sondan: Oltmishboy, To'qsonvoy, Panjixon va boshq.

5) fe'ldan: To'xtamish, Ko'paysin, Tilavoldi. Diqqatimizni asardan olingan parchalarga qaratamiz: *Ko'paysinning ko'z oldidagi manzara birdan o'zgardi. Ergash tabiatan yalqovroq bo'lgani uchun ro'zg'or tashvishlarining bir uchini emas, asosiy qismini xotini ko'tarar edi. – To'xtamish jahl bilan ish pishitib bo'lmasligini bilib, yumshoq muomalaga o'tdi.*

6) ravishdan: Avvalboy, Bulturbek kabi ismlar shu turkum asosida hosil bo'lgan.

7) ba'zi modal va undov so'zlardan, masalan, *Rahmatulloh ovoz chiqarib tasbeh aytganday bo'ldi.*

Olim E. Begmatov o'zbek tilida so'z turkumlari otlashish yo'li bilan antroponim vazifasiga ko'chishini qayd etadi. Ammo yuqorida tahlil qilinganidek, ismlar bir qancha so'z turkumlaridan hosil bo'ladi. Ma'lumki, barcha turkum otlashish xususiyatiga ega emas. Masalan, fe'l turkumidan ko'chgan leksemalar mavjudki, ular otlasha olmaydi. "Ko'paysin" 3-shaxs birlik shakli buyruq maylidagi, "Ergash" 2-shaxs birlik shakli buyruq maylidagi fe'llarning kishi ismiga ko'chishini semantik yo'l bilan ismi hosil bo'lishi sifatida qarash o'rinli. Yana bir jihatga e'tibor berish lozimki, otlashgan so'zda so'zning lug'aviy ma'nosi va turkumi o'zgaraydi. Yuqoridagi so'z turkumlari esa nomga ko'chgach, lug'aviy ma'nosidan uzoqlashadi va atoqli otga ko'chadi.

Affiksatsiya usulida yasalgan ismlar. O'zbek ismlari orasida nominatorlar tomonidan irod qilingan ismlar ham bor. Bu ismlarga qo'shimchalar qo'shilsa-da, nomni yasash nomlash jarayonidagi motivlar asosida hosil qilinadi. Shu sababli bu nom onomastikaning lug'aviy birligi tizimiga xos. Bunday ismlar shu bilan xarakterlanadiki, nom shakli o'ziga xos (original) yasalma bo'lib, tilda oddiy leksema sifatida uchramaydi. Demak, bu leksemalar antroponimiya tizimining o'ziga xos, qaytarilmas ko'rinishidir. Bularga *Yo'lechi, To'yli, Quvondiq, To'xtamish* kabi ismlarni kiritish mumkin. Ismlar quyidagi ko'makchi morfemalar orqali hosil bo'lishi mumkin:

-lan qo'shimchali ismlar: *To'ylan, Bog'lon, Toylon;*

-mish qo'shimchali ismlar: *To'lamish, To'xtamish;*

-don qo'shimchali ismlar: *Uldon, Obodon;*

-a, -ya (-iya) qo'shimchalarini olgan ismlar: Nafisa, Manzura, Saida.

Yozuvchi T. Malik asarlarida esa -gir hamda -chin qo'shimchali yasama ismlar mavjudligi ham kuzatildi: *Jahongir bu savolni berishni aslida oromgohda o'ylagan, mavrid kelishini poylayotgan edi. Olamgir qo'lini ko'ksiga qo'ydi-da, ukasining ortidan yurdi. Go'shtdor odamning to'rt-besh qadam nariga uchib tushganini orqadan kelayotgan Elchin ham, Ahadbey ham sezmay qolishdi.*



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
29.09.2023 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.
Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara,
K.Murtazayev street, 344